



## Bolalar ongida madaniyatning o‘rni

**Berkinov Oybek Toxir o‘g‘li**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o‘qituvchisi

[oybekberkinov98@gmail.com](mailto:oybekberkinov98@gmail.com)

**Abdug‘opurova Kimyoxon Adxam qizi**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi

[kimyoxonabdugopirova@gmail.com](mailto:kimyoxonabdugopirova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Yoshlarda ma’naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta’lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma’rifatga, ta’lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta’lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan. Madaniyatning insoniyat jamiyati shakllanishi va taraqqiyotidagi rolini to‘g‘ri belgilash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar tarbiyasi, qadriyatlar, e’tiqod, bola, oila, oilaviy va ijtimoiy tarbiya, ta’lim, milliy tafakkur, barkamol avlod, oilaning o‘rni.

**Abstract:** An important factor that forms spirituality in young people is the education system. It is necessary to look at knowledge and education as the main condition of human perfection and development of the nation. For this reason, it is stipulated in our Constitution that the issue of school and youth education is under the control of the state. Correct definition of the role of culture in the formation and development of human society is of great theoretical and practical importance.



**Key words:** Youth education, values, faith, child, family, family and social education, education, national thinking, perfect generation, role of family.

**Абстракт:** Важным фактором, формирующим духовность молодежи, является система образования. Необходимо смотреть на знания и образование как на главное условие человеческого совершенствования и развития нации. Именно поэтому в нашей Конституции предусмотрено, что вопрос школьного и молодежного образования находится под контролем государства. Правильное определение роли культуры в становлении и развитии человеческого общества имеет большое теоретическое и практическое значение.

**Ключевые слова:** воспитание молодежи, ценности, вера, ребенок, семья, семейно-социальное воспитание, образование, национальное мышление, совершенное поколение, роль семьи.

**KIRISH.** Mamlakatimizda jismoniy sog‘lom, ma‘naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas‘uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir. Ma‘naviy-ruhiy sog‘lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog‘lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma‘naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni judayam katta. Yoshlarda ma‘naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta‘lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma‘rifatga, ta‘lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta‘lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan. Yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning



dastlabki kunlaridanoq e'tiborni qaratib, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila, Obod turmush yili nomlari bilan atalgan Davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi, xalqimizning yorqin kelajagi to'g'risidagi ezgu niyatlari ifodasidir. Dasturlar avvalo jismonan va ma'nan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini belgiladi. Ma'lumki, hozirgi davrda globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv-bu avvalo xayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro yohamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi- bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g'oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda. Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, bu jarayon Mustaqillik yillarida uzluksiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta'minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo'qotgan, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo'lmoqda. Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bo'lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e'tibor, mehr, g'amxo'rlik ko'rsatib kelinayotganligi e'tiborga molik. Mehribonlik uylari, maktab internatlarining va maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, o'quv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashish masalalari belgilangan. Yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning o'rnini buyuk. Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o'z o'rinlarini topa olishida, kishilar o'rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy



otaxonlar, onaxonlarning tutgan o‘rinlari muhimligini ta’kidlash lozim. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida ota-ona mas’uliyati alohida o‘rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk bor hayot to‘g‘risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo‘lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so‘ngra jamoaga ko‘chadi. Yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun ta’lim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga bu sohalardagi mavjud katta-kichik kamchiliklar va nuqsonlarga tezlikda barham berish va bunday salbiy holatlardan qutilish lozim bo‘ladi. Mamlakatimizda yoshlar ma’naviy tarbiyasida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va gumanitar fanlar ahamiyati beqiyos, shu sabab bu fanlar vakillari o‘zlarining o‘ta mas’uliyatli vazifalarini bugungi kun talabi darajasida bajarishlari lozim bo‘ladi. Bu sohadagi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, adabiyotlarning hamda mutaxassislarning ham saviyasi yuqori bo‘lishi talab etiladi. Xalqimiz, eng avvalo yoshlarimiz ma’naviy olamini kuchaytirish va daxlsizligini asrash uchun doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lishimiz, tahdidlarga qarshi chuqur o‘ylangan, ilmiy uslubga asoslangan va uzluksiz davom etadigan ma’naviy tarbiyani olib borish lozim bo‘ladi. Madaniyat, avvalo, insoniyatning ko‘p asrlik bilimlari va tajribalari yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida ko‘p asrlar davomida jamiyat tomonidan yaratilgan bilim, tajriba, ko‘nikma, xulq-atvor me’yorlarini, ya’ni madaniyatni o‘zlashtiradi. Farzandlarimiz ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun:

Vatanga, ota-onaga, o‘tgan avlodlariga hurmat, muhabbat tushunchalari va tasavvurlarini kengaytirish;

Burch, vijdon, insof, mas’uliyat haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;  
Do‘stlik, o‘rtoqlik, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish hal qilinishi kerak bo‘lgan dastlabki vazifadir.

Estetik qadriyatlar farzandlarimizning estetik sezgi va idrokini tarbiyalash, tashqi va ichki go‘zalligini shakllantirishdir. Ularda estetik qadriyatlarni shakllantirish uchun:



Bola ongida ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan amaliy, me'morchilik, musiqa va san'at asarlarini, shuningdek, turli xarakterdagi bayramlarni asrab-avaylash tuyg'usini shakllantirish;

Go'zallikka baho berish, haqiqiy go'zallikni soxta go'zallikdan ajrata olish;

Tabiatning nozik, nafis go'zalliklarini ko'rish, his etishni rivojlantirish talab etiladi. Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra, milliy va umuminsoniy turlarga bo'linadi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqida tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz, ya'ni faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov yozganidek, “Bolaning ongi, asosan, 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi Inson oladigan barcha informatsiyalarning 70%ini 5 yoshgacha oladi, deyiladi. Bu degani esa, 5 yoshgacha bola ijtimoiylashuv davrini bosib o'tib bo'ldi, deganidir. Ijtimoiylashuvning ilk qadami oiladan ro'y beradi. Bola o'z xatti-harakatini ota-onasining munosabatiga asoslanib shakllantirib boradi. Undagi ijobiy va salbiy xususiyatlarning paydo bo'lishiga oiladagi yashash tarzi turtki bo'ladi. Bolaning qiziqishi va savollari ota-onaning e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Maqsadlar birligi yakdillikda tashkil qilinishi lozim. Farzandning ongi, tafakkur dunyosi boyib borishi, insoniylikka xos fazilatlar o'zida namoyon qilish qobiliyati va komillikka erishish shu insonlarning qo'lida. Zeroki, oila tarbiyaning ilk maskanidir Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin, baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon e'tiqodli farzand, nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning katta boyligidir. “Bugungi kunda



yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. “O`z bolangni o`zing asra” degan da`vat faqat quruq shior bo`lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya`ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas`uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo`yish vaqti keldi, deb o`ylayman”. Haqiqatan ham har bir ota-ona o`z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma`naviy sog`lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o`zi tarbiyalangan bo`lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o`rganish, kitob o`qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o`qishga qiziqтира bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o`z mas`uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim. Oilada sog`lom muhit mavjud bo`lgandagina, ularda har tomonlama sog`lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog`lom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo`lgan kelajak avlodni voyaga etkazishda oila ma`naviyatining tutgan o`rni alohidadir. Oila tarbiyasi bo`yicha Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o`ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan, islom ta`limotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha ta`kidlanadi: “ Islomda tarbiya ta`limdan ko`ra ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, ko`chada, maktabda o`zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o`ziga bo`ysundirishdek og`ir ishni yo`lga qo`ydi. Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyda nimani ko`rsa, shunga tahlid qilib o`sadi. Oilada ota olijanob keng fe`l, bosiq, mulohazali va ozgina siyosatliroq bo`lishi, ona esa mehribon, rahmli, bolalarini behuda qarg`amaydigan va muloyim bo`lmog`i lozim. Farzandlarimizni sog`lom e`tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan. Bola kichkinaligida torgina makonning zavqi, ota-onaning kelajagi, saodatli hayotining mahsuligina, xolos. U yura boshlab, ostona hatlab ko`chaga chiqqanidan keyin ijtmoylasha boshlaydi. Bolalarga qo`shilib, ulkan jamiyatning kichik a`zosi bo`lib qoladi. Ana shunda oilaning tarbiyaviy roli, ma`naviy-axloqiy roli oshadi. Sharq turmush tarzi,



asosan, axloqqa tayanganligi va yuksak ma'naviy ehtiyojlarni qadriyat darajasida ko'targanligi bilan alohida ajralib turadi. Oila mas'uliyati, uning ijtimoiy mohiyati xuddi ana shu bilan belgilanadi. Oila katta bo'ladimi, kichik bo'ladimi, baribir, u sonidan qat'i nazar mustaqil ijtimoiy makon sifatida o'z muhitiga, iqlimiga, ma'naviy, axloqiy ob-havosiga ega. Har bir oilaning o'z aqidalari, turmush tarzi, hayotiy ehtiyojlari mavjud. Ana shu ehtiyojlar va aqidalar turmush tarzidagi an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarni qay darajada qabul qilgani va uning asosida o'z hayotini qurganligini ko'rsatadi. Farzand – oila tayanchi. Demak, farzand sog'lom, durkun, jismoniy biologik jihatdan benuqson tug'ilishi zarur. Ota-ona bunga intilishi shart. Zotan, oilaning fayzi, tarovati, zavqli va mehr-muhabbatli jihatlari ayni ana shu bilan o'lchanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi XXI asrga qadam qo'yganidan keyin bu masala yanada dolzarb, yanada muhim, hayot-mamot masalalaridan biriga aylanib qoldi. Men,- deb yozgan edi Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov, - Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham muhim va dolzarbdir". Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa, bu masalada bo'shliq (ma'naviy bo'shliq) paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bugungi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama - qarshiliklar va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, fohishabozlik, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" va shu kabi boshqa xavf - xatarlar tobora kuchayib, insoniyat ming yillar davomida amal qilib kelgan milliy, diniy va oilaviy qadriyatlar, e'tiqodlarga putur yetmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida, ayniqsa yoshlar tarbiyasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani - ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi. Yoshlarimiz tarbiyasi - bu bir kishining ishi emas. Agar hammamiz birgalashib harakat qilsak, yoshlarimiz Vatan va el - yurt koriga yaraydigan insonlar bo'lib ulg'ayadilar. Yaxshi tarbiya insonga ma'naviyat kabi ona suti, ota na'munasi va ajdodlar o'giti bilan birga



singadi. "O'z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butunjahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining haqiqiy jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsning insoniyat tomonidan qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloq-odob qoidalarini zamonaviy ma'naviy mezonlar bilan uyg'un holda kundalik hayotda, amaliy faoliyatda yaxlit tarzda o'z xatti-harakati, xulq-atvori orqali ongli ravishda namoyon etish demakdir.

**XULOSA.** Bola o'zini anglash sari qadam qo'yganidan tevarak-atrofnini, yaqinlarini, unga g'amxo'rlik qilayotgan ota-onalarini tanishni va ularning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zlashtirishni boshlaydi. O'zbek oilalariga xos bo'lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmoqlik, adolat, poklik, to'g'rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onadan farzandga bevosita singdiriladi. Urf-odat va an'alarimiz, madaniyatimizdan bahramand bo'lgan o'g'il-qizlarimizning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko'mak berish, so'ngra esa o'z oilalari uchun qayg'urish hissi singib boradi. Oilada farzand tarbiyasida nafaqat ota va ona, balki bobo va buvilarning ham o'rni haqida ham unutmazlik kerak. O'zbek oilalarida istiqomat qilayotgan keksa avlod vakillariga ko'rsatilayotgan ehtirom zamirida pir-u badavlat onaxonlar-u otaxonlarimizni e'zozlash, ularning o'g'itlari, pand-nasihatlariga amal qilish, keksaygan chog'larida tayanch bo'la olish singari qadriyatlar mavjud.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Madaniyat va jamiyat. — T.: «O'zbekiston», 1993, 27-bet
2. A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 22-bet
3. Karimov I. A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «O'zbekiston», 1997.
4. Karimov I. A. O'zbekiston ma'naviy yuksalish yo'lida. — T.: «O'zbekiston» 1998.
5. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. — T.: «O'zbekiston» 1999.
6. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. — T.: «O'zbekiston» 2005.